



**BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

**Sh. Yuldasheva**

*dots. O‘MPU*

**N.Izzatova**

*O‘MPU 3-bosqich talabasi*

[izzatovanazokat72@gmail.com](mailto:izzatovanazokat72@gmail.com) [TEL:+998901367336](tel:+998901367336)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfi o‘quvchilarida lug‘atlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning lug‘at boyligini oshirishning zamonaviy usullari bayon qilinadi. Maqolada lug‘at bilan ishlash ko‘nikmalarining ta‘limdagi o‘rni, lug‘at turlari va ulardan samarali foydalanish metodlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, boshlang‘ich ta‘limning har bir bosqichida lug‘at ishlarini tashkil etishning ilmiy asoslangan usullari, innovatsion texnologiyalar va amaliy tavsiyalar beriladi. Kuzatish natijalari tizimli ravishda olib borilgan lug‘at ishi o‘quvchilarning nafaqat til bilish darajasini, balki umumiy ta‘limiy ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatdi.*

**Аннотация:** *В данной статье описываются современные методы развития навыков работы со словарями у учащихся начальных классов и увеличения их словарного запаса. В статье рассматривается роль навыков работы со словарем в образовании, различные типы словарей и методы их эффективно-го использования. Также на каждом этапе начального образования даются научно обоснованные методы организации словарной работы, инновацион-ные технологии и практические рекомендации. Результаты наблюдений пока-зывают, что систематическая словарная работа значительно улучшает не только уровень владения языком учащихся, но и их общие образовательные навыки.*

**Abstract:** *This article describes modern methods for developing vocabulary skills in primary school students and increasing their vocabulary. The article discusses the role of vocabulary skills in education, various types of dictionaries, and methods for their effective use. Also, at each stage of primary education, scientifically based methods for organizing vocabulary work, innovative techno-logies, and practical recommendations are provided. Observation results show that systematic vocabulary work significantly improves not only students' language proficiency level but also their general educational skills.*

**Kalit so‘zlar:** *Nutq, boshlang‘ich ta‘lim, lug‘at, so‘z, nutqiy kreativ-lik, leksikologiya, nutq, imloviy savodxonlik, imlo lug‘ati, kreativlik, lug‘at boyligi, til rivojlanishi, o‘qitish metodikasi, lug‘aviy ko‘nikmalar, pedagogik texnologiyalar*

**Ключевые слова:** *Речь, начальное образование, словарь, слово, речевой креативность, лексикология, речь, орфографическая грамотность,*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

*орфографический словарь, креативность, словарный запас, развитие языка, методика обучения, лексические навыки, педагогические технологии.*

**Keywords:** *Speech, primary education, vocabulary, word, speech creativity, lexicology, speech, orthographic literacy, orthographic dictionary, phrase, figurative expression, creativity, vocabulary, language development, teaching methodology, lexical skills, pedagogical technologies*

### Kirish

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim oldiga mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan - savodxon shaxsni ka-mol toptorish vazifasi qo'yilgan. Qo'yilgan bu vazifalarni bajarishda boshlang'ich sinf ona tili darslarida olib boriladigan nutq ostirish ishlarining ahamiyati katta va bu borada amalga oshiriladigan ishlar, nazariy yo'l-yo'riqlar ko'rsatib berilgan qator metodik adabiyotlar mavjud.<sup>36</sup> Mazkur adabiyotlarda o'quvchilar so'z zahirasini oshirishga urg'u berilib, "O'quvchilar nutqining go'zalligi, izchilligi, ta'sirchanligi ularning lug'at boyligi bilan bog'liq"- degan fikr ta'kidlanadi.

O'quvchilarning ijodiy tafakkuri va nutqini ostirishning zaruruy omillaridan biri lug'atlar bilan ishlashdir. Lug'atlar o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so'z zahirasini vujudga keltiradi. Mazkur muammo F. Safarov, A. Hasanov, T. Mirzayev, R. Karimov, M. Yunusova, L. Umarova, M. Yusupova, D. Karimovalar tomonidan o'z tadqiqot obyektlari doirasida o'rganilgan va ular: "O'quvchilarda lug'atning barcha turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish lozim",-deb hisoblaydilar.<sup>37</sup>

Lug'at bilan ishlash ko'nikmasi o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantiradi va ularga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Til rivojlanishi jihatidan: 1) so'z boyligining kengaytirish, 2) nutq madaniyatini yaxshilash, 3) yozma va og'zaki nutqni rivojlanishi, 4) imlo qoidalarini o'zlashtirish.


Ta'limiy jihatdan: 1) mustaqil bilim olish ko'nikmalarining shakllanishi, 2) ma'lumot qidirish va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishi, 3) tanqidiy fikrlashning rivojlanishi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar quyidagi lug'atlar bilan tanishadilar:

1. Izohli lug'atlar - Izohli lug'atlarda so'zlarning ma'nosi izohlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus tayyorlangan izohli lug'atlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

<sup>36</sup> A.G'ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarov, A. Bobomurodova, N. Alovuddinova, V. Karimjonova. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.:2012; K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.:2009; B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -T.:2006

<sup>37</sup> Safarov F. Boshlang'ich sinflarda lingvistik o'quv lig'atlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish usullari. Jamiyat va innovatsiya. May 2022 3(2):135-b.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

2. Sinonimlar lug'ati - o'xshash ma'noli so'zlarni o'rganish uchun qo'llaniladi. Bu turdagi lug'at o'quvchilarning ifoda boyligini oshiradi.

3. Antonimlar lug'ati - qarama-qarshi ma'noli so'zlarni o'rganish orqali tushunchalarni yanada chuqur anglash imkonini beradi.

4. Imlo lug'ati - so'zlarning to'g'ri yozilishi o'rgatiladi.

5. Rasmlı lug'atlar - kichik yoshdagi o'quvchilar uchun eng samarali vosita bo'lib, so'z va tasvir orqali tushunchani mustahkamlaydi.

Boshlang'ich sinflarda lug'at bilan ishlash ko'nikmalari 1-sinfdan boshlab shakllantirib boriladi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1-bosqich: Tanishish bosqichi (1-sinf) Bu bosqichda o'quvchilar lug'at nima ekanligini va uning maqsadini tushunishlari kerak:

Asosiy vazifalar: 1.Lug'atning tashqi ko'rinishi bilan tanishish. 2.Lug'atga nima uchun murojaat qilinishini tushunish.3. Lug'atdan ehtiyotkorlik bilan foydalanishni o'rganish.

Amaliy mashqlar:1.Lug'atni ko'rib chiqish, 2.Rasmlarga qarab so'zlarni topish, 3.O'qituvchi rahbarligida so'zlarni qidirish.

2-bosqich: Asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirish (2-sinf)

Asosiy vazifalar: 1. Alifbo tartibini yaxshi o'zlashtirish. 2.So'zlarni alifbo tartibida qidirishni o'rganish. 3.Lug'at ma'lumotlarini tushunishni o'rganish

Amaliy mashqlar:1.Berilgan so'zlarni alifbo tartibida joylashtirish.2.Birinchi harf bo'yicha so'z qidirish, 3.Lug'atdagi izohlarni o'qish va tushunish.

3-bosqich: Ko'nikmalarni rivojlantirish (3-sinf)

Asosiy vazifalar:1.Ikkinchi va uchinchi harflar bo'yicha qidirishni o'rganish. 2.Turli turdagi lug'atlar bilan tanishish.3. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni mustaqil qidirish

Amaliy mashqlar:1.Murakkab so'zlarni qidirish.2.Sinonim va antonimlarni topish, 3.Lug'at ma'lumotlaridan foydalanib gaplar tuzish

4-bosqich: Mustaqil ishlash (4-sinf)

Asosiy vazifalar:1.Turli lug'atlardan samarali foydalanish.2.Ma'lumotlarni taqqoslash va tahlil qilish. 3.Lug'at yordamida mustaqil topshiriqlarni bajarish.

Amaliy mashqlar:1. Loyiha ishlari uchun ma'lumot to'plash. 2.Matn o'qish jarayonida lug'atdan foydalanish. 3.O'z lug'at daftarchalarini yuritish.

Boshlang'ich sinflarda lug'atlar bilan ishlash muntazam va izchil olib borilsa, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalari, fikrlash qobiliyatlari va nutqlari rivojlanib boradi. Quyida lug'atlar yordamida 1-4-sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirishning samarali usullariga misollar keltiramiz.

1. Kundalik lug'at ishi

Har kuni yangi 3-5 ta so'z bilan tanishish va ularni amalda qo'llash:

- Ertalabki daqiqalarda: Kun boshida yangi so'z bilan tanishish

- Dars jarayonida: Yangi so'zlarni qo'llash

- Kun yakunida: O'rganilgan so'zlarni takrorlash

2. Ta'limiy o'yinlar.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

“Lug‘at detektivi” o‘yini:

O‘quvchilarga ma‘nosi noma‘lum so‘z beriladi. Ular lug‘atdan foydalanib so‘z ma‘nosini topishadi. Topilgan ma‘no asosida gap tuzishadi.

“So‘z sayohati” o‘yini:

Belgilangan mavzu bo‘yicha so‘zlar to‘plash. Lug‘atdan foydalanib qo‘shimcha ma‘lumot olish. Topilgan so‘zlardan hikoya tuzish.

3. Guruhlar bilan ishlash.

O‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lib, lug‘at bilan ishlashda hamkorlik qilishga o‘rgatish.

Har bir guruhga turli topshiriqlar berish. Natijalarni birga muhokama qilish. Bir-birlarining xatolarini tuzatish

4. Kreativ yondashuvlar

Lug‘at ishlarini ijodiy faoliyat bilan bog‘lash:

Yangi so‘zlar bilan she‘r yozish. Rasmlar chizib, ularga lug‘atdan topilgan so‘zlar bilan izoh berish. Mini-lug‘atlar yaratish.

Zamonaviy texnologiyalar va lug‘at ishlari

Elektron lug‘atlar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun maxsus ishlab chiqilgan elektron lug‘atlardan foydalanish.

Afzalliklari:1)tez qidiruv imkoniyati.2)ovozli talaffuz.3)interaktiv mashqlar. 4)rang-barang tasvirlar.

Qo‘llash usullari:1). Kompyuter sinfida individual ishlash. 2). Ekranda namoyish qilish orqali jamoaviy ishlash. 3.Uy vazifalarida foydalanish

“Eng ko‘p so‘z biladigan o‘quvchi” kabi musobaqalar tashkil etish

O‘quvchilarga o‘z yutuqlari haqida gapirishga ruxsat berish

Ota-onalar bilan hamkorlik

Uy sharoitida lug‘at ishlarini davom ettirish uchun ota-onalarni jalb qilish: 1).Uy vazifalarini bajarishda lug‘atdan foydalanishni talab qilish. 2).Ota-onalar uchun yo‘riqnomalar tayyorlash. 3).Oilaviy lug‘at o‘yinlarini tavsiya etish

Boshlang‘ich sinflarda lug‘at ustida ishlashni tashkil qilishda o‘qituvchi quyidagilarga rioya qilish talab etiladi.:

- lug‘at ishini tizimli ravishda olib borish;
- mavzuga mos lug‘at turini tanlash;
- lug‘atdan foydalanish usulini tanlash;
- o‘quvchilarning yoshi va saviyasini inobatga olish.
- ajratilgan vaqtga rioya qilish;

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari maktabga ilk kelgan chog‘lari hali o‘qish va yozishni bilmasalar ham, albatta, nutqiy jihatdan ma‘lum bir bilim darajasini shakllantirgan holda





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

keladilar. Ya'ni ular o'z firklarini og'zaki nutqda ifodalay oladilar. Bu esa ular hayotlari davomida og'zaki nutqqa juda katta ehtiyoj sezishlarini anglatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'at bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va lug'at boyligini oshirish - bu uzoq muddatli va tizimli jarayon. Muvaffaqiyatli natijaga erishish uchun o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va an'anaviy usullarni birlashtirgan holda, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda lug'at ishlarini tashkil etish kerak. Bu yondashuv o'quvchilarning nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki ularning umumiy intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova K., Matchonov S. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: 2009
2. Umarova, L.K. Ota-onalar bilan hamkorlikda lug'at ishlarini tashkil etish. Oila va maktab hamkorligi, (2019). 4(13), 56-62.
3. Xolmatov, S.N. "Lug'at boyligini oshirishning innovatsion usullari". Ta'lim innovatsiyalari. (2021) 1(6)
4. Yusupova, M.T., Karimova, D.A. Boshlang'ich sinflarda lug'aviy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi. Uzluksiz ta'lim, (2020). 6(22).
5. Safarov F. Boshlang'ich sinflarda lingvistik o'quv lig'atlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish usullari. Jamiyat va innovatsiya. May 2022 3(2):6.
6. Safarov F., Safarov S. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun izohli lug'at - T.: 2012
7. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarov M., Bobomurodova A., Alovuddinova N., Karimjonova V.. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.:2012;
8. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -T.:2006

